

Alisher Navoiy obrazi talqinlarida ohang va nutqiy tavsif

Go'zal Erkinovna Xalikulova

Annotasiya: Maqolada teatr arboblari uyushmasida siymo yaratish kabi qiyin vazifa yuzasidan suhbatlashib, fikr almashadilar va ushbu asarni ikki marotaba sahnalashtirib shuhrat qozongan otaxon, hozirgi Milliy akademik drama teatrida qayta sahnalashtirish ayni muddao deb topiladi. Sahnada klassik asarlarda murakkab obrazlar yaratgan, "Alisher Navoiy" dramasi Mannon Uyg'ur talqini ishtirokchisi S.Eshonto'rayevaning maslahatlaridan ilhomlangan T.Azizov o'z ishini p'esani qayta o'qishdan boshlaganligi haqida.

Kalit so'zlar: Vatan madhi, Alisher Navoiy, tarixiy shaxslar, sahnalarda ma'naviy meros, falsafiy fikrlar, so'z mulking sultoni

In the interpretations of the image of Alisher Navai, description of tone and speech

Gozal Erkinovna Khalikulova

Abstract: The article discusses and exchanges the difficult task of creating an image in the association of theater actors, and also considers the father, who gained fame for staging this play twice, and re-staging it in the current National Academic Drama Theater. corresponding. Inspired by the advice of S. Eshontorayeva, a participant in the Manno-Uighur interpretation of the drama "Alisher Navoi", T. Azizov began his work by re-reading the play.

Keywords: Anthem of the Motherland, Alisher Navoi, historical figures, spiritual heritage on stage, philosophical reflections, sultan of speech

1991-yil Vatanimiz tarixida unutilmas voqea sodir bo'ldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, sahnalarda ma'naviy merosimiz bo'lmish buyuk ajdodlarimiz - tarixiy shaxslar hayotini yoritish, qiyofalarini gavdalantirishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Alisher Navoiy siymosini yod etish, merosini chuqurroq o'rganish, yaratgan asarlari va undagi falsafiy fikrlarini tadqiq etish maqsadida "1991-yil Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilindi. Ulug' mutaffakkir - so'z mulking sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan kunining 550 yilligini keng nishonlash ayni mustaqillikning birinchi yiliga to'g'ri kelishi ham quvonarli hol bo'ldi. Yubiley munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi tomonidan teatr rejissorlariga sahnada Alisher Navoiy siymosini qayta yaratish taklifi

bildirildi. Shu bilan birga O'zbekiston teatrlari sahnasidan ancha uzoqlashib qolgan Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi qayta sahnalashtirish vazifasi rejissorlar zimmasiga yuklatildi.

Nutqning tug'ilishining tabiati - bu so'zlovchining harakatlariga asoslangan psixologik harakat. Bundan nutqning asosiy printsiplari kelib chiqadi, ya'ni ovozni ovoz chiqarish texnikasining barcha elementlarini harakatga bo'yondirish.

Teatr arboblari uyushmasida bu vazifa yuzasidan suhbatlashib, fikr almashadilar va ushbu asarni ikki marotaba sahnalashtirib shuhrat qozongan otaxon, hozirgi Milliy akademik drama teatrida qayta sahnalashtirish ayni muddao deb topiladi. "Alisher Navoiy dramasi qayta sahnalashtirish o'zbek tarixiy she'riy dramalarni sahnaga olib chiqishda muayyan tajriba orttirgan, rejissorlik kasbining sir-asrorlarini jiddiy o'zlashtirishga kirishgan Turg'un Azizovga nasib qildi.

Ammo bu ish o'ta mas'uliyatli edi. Chunki drama, yuqorida ta'kidlanganidek, teatr tarixida ikki marta sahnalashtirilgan va aktyorlarning bir necha bo'g'ini monumental obrazlari yaratilgan. Navoiy obrazi orqali ulug' aktyorlarimiz - Abror Xidoyatov, Olim Xo'jayev o'zbek teatr san'atini yuksak cho'qqilarga olib chiqqan.

T.Azizov Alisher Navoiy siymosini yaratgan Abror Xidoyatov va Olim Xo'jayevlarning ulkan mahoratini ko'z oldiga keltirar ekan, avvaliga juda ikkilanadi. Hatto bu ishdan bosh tortmoqchi ham bo'ladi. Bu ikkilanishni zimdan kuzatib yurgan mashhur aktrisa Sora Eshonto'rayeva rejissyorga bunday ishdan bosh tortmaslikni, aksincha, bor imkoniyatni, mahoratni ishga solib dramani sahnalashtirishni maslahat beradi.

Sahnada klassik asarlarda murakkab obrazlar yaratgan, "Alisher Navoiy" dramasi Mannon Uyg'un talqini ishtirokchisi S.Eshonto'rayevaning maslahatlaridan ilhomlangan T.Azizov o'z ishini p'esani qayta o'qishdan boshlaydi. P'esani sinchiklab o'qir ekan, asar voqealari davomida ko'zga tashlanadigan tarixiy noaniqliklarni o'rganish maqsadida tarixiy hujjatlarga murojaat qiladi.

Aytish kerakki, T.Azizov "Alisher Navoiy" dramasi bundan bir necha yil ilgari Toshkent davlat san'at instituti o'quv teatrida o'z shogirdlari bilan diplom spektakli sifatida sahnalashtirgan edi. Bo'lajak aktyorlar bilan uning jur'atli izlanishlari, ma'lum darajada asarga yangicha yondashuvni o'sha vaqtda ham mutaxassislar tomonidan ijobiy bahoga va munozaraga sabab bo'lgan edi. Ammo bu spektaklning professional teatr sahnasida o'z vaqtida o'ynalmagani achinarli hol bo'lgan. T.Azizov ana shu spektakl yechimiga tayangan holda ish boshlaydi. Lekin o'z-o'zidan ma'lumki, spektaklning teatr sahnasidagi badiiy saviyasi hiyla baland bo'lishini anglab, shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatali.

Ma'lumki, "Alisher Navoiy" dramasi 1943-yilda yaratilib, 1945-yilda ilk bor atoqli rejissor Mannon Uyg'un tomonidan sahnalashtirilgan. O'shanda Alisher Navoiy obrazi, u yashagan XV asr muhiti o'zbek dramaturgiyasida va sahnada to'laqonli aks

ettirilgan edi. Zero, M.Uyg'ur mumtoz adabiyotni juda yaxshi bilar edi. Nainki adabiyot, tarixning, madaniyatning bilimdoni sifatida tanilgan edi. Shu bois spektakldagi liboslar, aktyorlardagi muomala madaniyati, sahnaviy nutq tomoshabinlar e'tiborini tortib turgan. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Uyg'urning o'zi aktyor bo'lgani uchun spektakldagi har bir obraz nutqiga alohida yondashgan. Ayniqsa, Olim Xo'jayev o'ynagan (ilk bor Abror Hidoyatov o'ynagan) Navoiy obrazini serqirra ko'rsata olgan.

Navoiy obrazini yaratgan aktyorlarning ijrosi olimlar tomonidan juda ko'p tahlil qilingan. Jumladan, Y.S.Feldman shunday deb yozadi: "Abror Hidoyatov ijrosida Alisher Navoiy harakatchan, ochiq, samimiy keskin va serg'ayrat kishi sifatida ifodalansa, Olim Xo'jayev ijrosida esa, shoir obrazi og'ir, muloyim, beozor, vazmin talqin etilgan. Hidoyatovning chehrasida doim tabassum o'ynab turadi. Ko'zlarida hayotga muhabbat o'ti yonadi. Olim Xo'jayev esa sahnada chuqur o'yga tolgan holda sipolik bilan harakat qiladi". T.Islomov Alisher Navoiyni nozik tabiatli, nafosatli va yuksak madaniyatli bo'lganligini e'tirof etgan holda "Abror Hidoyatov yaratgan Alisher Navoiyda salobat va ko'tarinkilik birinchi planga chiqqan... Olim Xo'jayev esa obrazni boshqacharoq hal qildi. U shoirning xarakteridagi dramasi uchun ochilishiga, fojeasiga ko'proq e'tibor berdi. Xo'jayev talqin etgan Navoiy Hidoyatov siymosidagi Navoiyga qaraganda hissiyotchan edi", degan fikrlarni ilgari suradi.

Darhaqiqat, O.Xo'jayev ustoz A.Hidoyatov kashfiyotidan ozuqa olgan. Uning ijro uslubidan foydalangan. O.Xo'jayev A.Hidoyatov ijrosidan ilhomlangan bo'lsa-da, biroq obraz talqinida o'z yo'lidan borgan. "Abror Hidoyatov Navoiyni romantik ko'tarinki va psixologik teran hal qilib, Navoiyning ma'naviy hissiyot dunyosining boyligi va go'zalligini, uning yuksak gumanistik g'oyalarga intilishini, faylasuflik ehtirosini, ishqiy iztiroblarini ulkan mahorat bilan ochib berdi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холиқулова, Г.Э. (2007). Саҳна нутқи. Тошкент-2007 й.
2. Холиқулова, Г.Э. People's poet of uzbekistan mukhammad yusuf - singer of the native land and love. International conference. Pages 154-159.
3. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35 - бет.
4. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маннон Уйгур - выдающийся режиссёр узбекского театра и мастер по сценической речи. Эдебиет және өнер институты, Алматы. Вопросы литературы и искусства им. М.Ауэзова. 59-60 стр.
5. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35-бет.
6. ГЭ Халикулова. Актёрлар нутқда Навоий шеърляти. Театр, Тошкент. 10-11- бетлар.

7. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳнада тарихий муҳит тасвири. Театр, Тошкент. 20-21- бетлар.
8. Гўзал Эркиновна Халикулова. Искусство речи в историко-поэтических спектаклях. / Искусство Узбекистана. История и современность. Материалы научно-практической конференции молодых ученых. Ташкент: Поколение нового века. Стр. 50-51.
9. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий театр ҳақида шахсий мулоҳазалар. Қалдирғоч, Тошкент. №1(4). 2 - бет.
10. Гўзал Эркиновна Халикулова. Вопросы сценической речи в интерпретации узбекской исторической драмы (80-90-е годы). Автореферат 2004 г. стр. 1 - 21.
11. ГЭ Халикулова. Саҳнани актёр безайди. Театр, Тошкент, 22-23-бетлар
12. Guzal Khalikulova. “Мирзо Улуғбек” тарихий драмасида тил масалалари. /Сб науч. тр. “Нафосат”. 144-147.
13. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи (тарихий драмалар талқинида). Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎЗДСИ. 1 - 9 - бет.
14. Гўзал Эркиновна Халикулова. Husni ta'il - искусство силы. Журнал Театр, Ташкент. № 6. 14-15 стр.
15. Гўзал Эркиновна Халикулова. Чувство уважения. Журнал Калдирғоч, Ташкент. Стр 41.
16. Гўзал Эркиновна Халикулова. Гигиена и техника чтения книг. Журнал Калдирғоч, Ташкент. 21(42).
17. Гўзал Эркиновна Халикулова. Мусиқий ижрочиликда ёшларнинг фаоллигини ошириш ва уни ривожлантириш масалалари. Тошкент ТДМИ, (Тўплам).
18. Гўзал Эркиновна Халикулова. Санъат равнақи йўлида. Журнал Қалдирғоч, Тошкент. 2010/1.
19. Гўзал Эркиновна Халикулова. Хассос сўз устаси. “Мухсин Ҳамидов (Бадий сўз устаси)” номли монографияси учун мақола 2010. ЎЗДСИ. 8 - бет.
20. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маънавий баркамоллик давр талаби. ЖизПИ, тўплами. 363 - бет.
21. Гўзал Эркиновна Халикулова. Ўзбекистон давлат санъат институтида кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш ва соҳани ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар. Ўзбекистон санъати ва маданиятида замон қаҳрамони образини яратиш муаммолари ва ечимлари” Тўплам. ЎЗДСИ.
22. Гўзал Эркиновна Халикулова. Юрт тараққиёти, халқ фаровонлиги ҳамда баркамол авлодни тарбиялашда санъатнинг роли. Халқаро Симпозиум материаллари тўплами.

23. Гўзал Эркиновна Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Брянск, Сборник материалов VI Международного симпозиума. Стр. 219 - 225.

24. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий раҳбар аёлнинг профессионал нутқини оширишга доир. 2012 й. “Аёл - маънавият гулшани” ЖизПи., 4- Республика илмий-амалий конференцияси Тўплам.

25. Гўзал Эркиновна Халикулова. Актёрнинг сахна нутқи маҳоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. 2012/3/27. Глобаллашув жараёнида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари 2- республика конференцияси. Тошкент.

26. Гўзал Эркиновна Халикулова. Театрларда адабий тил масъулияти. 2013 й. Янги давр санъати: анъанавийлик ва трансформацион жараёнлар. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 82-84 бет.

27. Гўзал Эркиновна Халикулова. Спектакль яратишда сўз ва ҳаракат уйғунлиги масалалари. 2014. Тошкент.: “Мумтоз сўз”. 110-114 бетлар.

28. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна асарларида қаҳрамон характерини яратиш масалалари. Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврўз. 112 - 117 бетлар.

29. Гўзал Эркиновна Халикулова. Институтда олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Театр// - Тошкент: 2014. (3). 9 -10 - бет.

30. Гўзал Эркиновна Халикулова. Сўз масъулиятини англаш ҳам санъат. Хуррият// - Тошкент. (43) 6-7 бетлар.